



**“IQTISODIY TADQIQOTLARGA
ASOSLANGAN OLIY MA’LUMOTLI
IQTISODCHI KADRLARNI
TAYYORLASH: MUAMMOLAR VA
INNOVATSION YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO‘PLAMI**

I



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO VILOYATI HOKIMLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**"Iqtisodiy tadqiqotlarga asoslangan oliy ma'lumotli iqtisodchi
kadrlarni tayyorlash: muammolar va innovatsion yechimlar"**

mavzusidagi

**xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to`plami, 2023 yil 6-7
iyun
I JILD**

**Collection of materials of the international scientific and practical
conference "Training highly educated economists based on
economic research: problems and innovative solutions", June 6-7,
2023
I VOLUME**

**Сборник материалов международной научно-практической
конференции «Подготовка высокообразованных экономистов
на основе экономических исследований: проблемы и
инновационные решения», 6-7 июня 2023 г.
ТОМ I**

Buxoro – Bukhara – Бухара – 2023

Iqtisodiy tadqiqotlarga asoslangan oliv ma'lumotli iqtisodchi kadrlarni tayyorlash: muammolar va innovatsion yechimlar

bildirib kelishmoqda. Shuning uchun biz mamlakatimizning nufuzi va imidjini hamda mamlakatimiz turizmi haqida xabardorlik yanada oshirish maqsadida quyidagilarni taklif qilmoqdamiz:

- mamlakatimiz to'g'risida bitta ixcham sayyoohlар uchun qo'llanma tayyorlanib, uni barcha tillarga tarjima qilib, chet sayyoohlар firmalariga tarqatish;
- O'zbekiston haqida qiziqarli ma'lumotlar bilan fotoalbomni tayyorlab, turli tillarda yuqori sifatda chop etish. Uning narxi qimmat bo'lmasligi zarur va O'zbekistonda barcha kitob do'konlari hamda sayyoohlар tashrif buyuruvchi do'konlarda sotishni yo'lga qo'yish kerak.
- yurtimiz, urf- odat va an'analarimiz, milliy qadriyat va boy tarixiy merosimiz haqida hujjatli va badiiy filmlar tanlovini e'lon qilib, ular orasidan eng saralarini rag'batlantirib, ular yaratgan filmlarni ingliz, rus , nemis va boshqa tillarga dublyaj qildirib, xalqaro tanlovlarda qatnashsak, sayyoohlар soni oshisi aniq deb o'yaymiz.

Bundan xulosa shuki,barcha rivojlangan davlatlarda turizm sohasining barqaror bo'lib turishiga asosiy omillardan biri bu reklama xizmati, turistik zonalar haqida yetaricha ma'lumotlar dunyo bo'yicha keng yoritilganligi bo'lib hisoblanadi. O'zbekistonda ham turizm sohasini rivojlantirishda, butun dunyo bo'yicha yetaricha ma'lumotlarni ta'minlash uchun reklama xizmati, ijtimoiy tarmoqlarda O'zbekistondagi turistik zonalar haqida ma'lumotlar keng yoritilishi ta'minlansa, O'zbekiston turizm sohasida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilgan bo'ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. data.egov.uz
2. madaniyat.uz
3. univ-silkroad.uz
4. [https://kun.uz](http://kun.uz)
5. [https://www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)

**Sayidova Gulasal Samad qizi
talaba, Buxoro davlat universiteti
gulasalsayidova925@gmail.com**

**Ilmiy rahbar: Axrorova Nilufar Uktamovna
Buxoro davlat universiteti o'qituvchi**

**EKOLOGIK TURIZM O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING ASOSIY
YO'NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA**

Dunyoda turizm sohasining ekologik turizm yo'naliishi insoniyat oldidagi ekologik inqirozning oldini olish, insoniyatning barqaror rivojlanishi va yashab qolishi uchun, sayyoramiz tabiatni va uning resurslarini saqlab qolishdagi najot yo'llarini axtarish zaminida shakllandi va rivojlanib bormoqda.

O'zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat ma'naviyatimiz, ilm-fan, madaniyat, ma'rifat, tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlani jalb qilish, biologik xilma-xillikni saqlash muammolarini hal qilishga balki, shu bilan birga iqtisodiy masalalarni, mahaliy xalqimining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, yangi ish joylari bilan ta'minlash, mamlakatimiz iqtisodiyotining o'sishiga katta hissa qo'shadi. Mamlakatimiz dunyoda ekologik turizm resurslariga boy davlatlar qatorida turadi va Markaziy Osiyoda, dunyo mamlakatlarining o'zaro aloqalarini geografik jihatdan bog'lovchi davlatdir. Shu sababli ichki, xalqaro turistik oqim va ekoturistik oqim ham bizda kuchayishining juda katta salohiyatlari mavjuddir.

Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ekoturizmning o'rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ko'plab qarashlar olg'a surilmoqda.

Birinchidan, xalqaro maqomdagi tashkilot va muassasalarning ma'lumotiga ko'ra, ko'pgina turizm turlari yiliga o'rtacha 5 foizga ortib borayotgan bo'lsa, ekoturizm yiliga o'rtacha 20-30 foizga ko'payib bormoqda. Ko'pgina mutaxassis va tadqiqotchilarning ilmiy tajriba va xulosalari shuni ko'rsatmoqdaki, ekoturizm turizmning yangi va yosh yo'naliishi bo'lishiga qaramasdan, ommalashuvni boshqa turistik yo'naliishlarga nistabatan 2-3 barobar jadal kechmoqda. Ikkinchidan, O'zbekistonda turizmning tarixiy turizm, diniy turizm, madaniy turizm kabi turlari bo'yicha muayyan yutuq va tajribalar bazasi shakllandi.

Bundan kelib chiqib aytsak bo'ladiki, yurtimizning har bir rayonlarida qanchadan qancha ekologik mohiyatga ega bo'lgan turistik markazlar mavjud. Biroq ularni keng ommaga tanitish, innovatsion yo'llarda rivojlantirish muhim muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Bunga birinchi sabab O'zbekistonda

Training highly educated economists based on economic research: problems and innovative solutions

majmuali turni, majmuali mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi malakali turopatorlarning juda kamligi hisoblanadi. Ikkinchidan, tabiiy mintaqalarning biologik xilma-xillik resurslarini yaxshi bilishmaydi. Uchinchidan, viloyatlardagi turistik resurslarning ravonlashtirilmaganligidir. Shu sababli turoperatorlar turistik resurslarning umumiy ro'yxati bilangina ishlashadi yoki viloyatlarda faqat ancha ommaviyashgan turistik obyektlargagina turmahsulot, turistik marshrutlar ishlab chiqishmoqda.

Tahlillarga ko'ra, ekoturizm xizmatlarini ko'rsatayotgan turoperatorlik firmalari asosan, Chimyon-Chorvoq rekreatsiya zonasiga doirasida faoliyat ko'rsatmoqda xolos. Biroq, O'zbekistonning Hisor, Bobotog', Ko'hitangtob' (Surxondaryo), Chaqchar (Qashqadaryo), Nurota (Navoiy-Jizzax), Zarafshon (Samarqand), Turkiston (Jizzax), Oloy (Farg'on), Qurama, Chotqol (Namangan) tog'lari, Qizilqum cho'lidagi qoldiq tog'lar, Qizilqum cho'li, Orol dengizining qurigan tubi va qoldiq sho'r ko'llar, Ustyurt platosi, Borsa kelmas sho'rxogi, Mingbuloq botog'i, Aydarko'l, Dengizko'l, Amudaryo va Sirdaryo sohilidagi to'qaylar, Muruntov kareri va tabiatning noyob yodgorliklari boylab majmuali va mavzuli ekoturlar tashkil etish to'laqonli yo'lga qoyilmagan. O'zbekistonda o'ziga xos joziba va takrorlanmas manzaralarga boy bo'lgan speleturizm (g'or turizmi) katta imkoniyatga ega. Ayni paytda O'zbekistonda 500dan ortiq g'orlar bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, yetarli turistik infratuzilmaga ega bo'lmaganligi sababli ularning birortasiga ham ekoturlar tashkil etilmayapti.

Ilmiy tadqiqot muassasalari va mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda ekoturizmning rivojlanish yo'naliishlari va istiqbollari tabiat qonuniyatlari va geotizimlar barqarorligi bilan bog'liq holda shakllanmoqda.

O'zbekistonda muhofaza qilinadigan tabiiy hudularda ekoturizmning rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy chora va tadbirlar «Ekoturizm Konsepsiyasida» mukammal holatda berilgan. Ekoturizmning dunyoda tutgan o'rni, mavqeい hamda O'zbekistondagi salohiyati va uning rivojlanishini e'tiborga olgan holda «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi» Vatanimizning muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarida ekoturizmning rivojlanishini ta'minlaydigan quyidagi asosiy chora va tadbirlar ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan.

1. Respublikamizda ekoturizm sohasida xizmat qiluvchi, jahon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassislarining yetishmasligini hisobga olgan holda, yosh mutaxassislarini ekoturizm rivojlangan mamlakatlarga (AQSH, Yaponiya, Kanada, Fransiya, Germaniya) malakalrini oshirish maqsadida o'qishga, ishga yuborish;

2. O'zbekistonda ekoturizmning jahon talablariga javob bera oladigan moddiy – texnik, axborot tahliliy bazasini yaratish, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish;

3. Vatanimizning tarixiy yodgorliklari, go'zal va betakror tabiat, landshafti, nabotot va hayvonot dunyosi haqida bukletlar, turistik atlas va xaritalar yordamida dunyo ekoturizm bozorida targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

4. O'zbekiston viloyatlari bo'yicha yangi ekoturistik dasturlar, yo'naliishlar va xaritalar tuzish;

Xulosa qilib aytganda, mazkur yechimlar asosida yurtimizda ekoturizm sohasining yangi jabhalarda rivojlanishiga va shu bilan bir qatorda xalqaro mehmondo'stlik sanoatida xalqaro nufuzini yanada oshirgan bo'lamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish kontsepsiysi Ekologiya xabarnomasi 2007 №6.

2. <https://lex.uz/>

3. <http://stat.uz/>

**Bozorova Gulasal Okmurodovna
student, Bukhara State University
gasal8481@mail.com**

**Supervisor: Akhrorova Nilufar Uktamovna
teacher, Bukhara State University
n.u.axrorova@buxdu.uz**

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF RURAL AND AGRO TOURISM IN UZBEKISTAN

Tourism has entered the world economy in the 21st century as a socio-economic sphere with a very positive impact. According to the data of the World Tourism Organization, 10% of the world's production and service turnover is due to tourism. In the next 20 years, the development of international tourism will

Iqtisodiy tadqiqotlarga asoslangan oliv ma'lumotli iqtisodchi kadrlarni tayyorlash: muammolar va innovatsion yechimlar

Ibragimov Nutfillo Salimovich, Yuldashev Kamol Sharifovich. O'zbekistonda mustaqil turizmni rivojlantirishda raqamli iqtisodiyot vositalaridan foydalanish yo'llari	352
Ахматова Моҳигул Эргаш кизи. Анализ транспортных услуг и мобильности к достопримечательностям Бухарской области	354
Po'lotova Dilnoza Tolibjon qizi, Axrorova Nilufar Uktamovna. Turizm mamlakat iqtisodiyotining asosiy yo'nalishi sifatida	356
Sayidova Gulasal Samad qizi, Axrorova Nilufar Uktamovna. Ekologik turizm o'zbekiston iqtisodiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida	357
Bozorova Gulasal Okmurodovna, Akhrorova Nilufar Uktamovna. Prospects for the development of rural and agro tourism in Uzbekistan	358
Хамзаева Дилфузা Самаровна, Направления сезонизации турпродукта в регионах	360
Salimova S.F. Joylashtirish vositalari tizimini rivojlantirishda onlayn turistik agentliklarning o'rni	363
Умидбек Комилжонович Бобоев. Ўзбекистонда аутсорсинг хизматларининг таснифи хусусиятлари	365
Sharopova Nafosat Radjabovna. Biznesni muvafaqqiyatlari yuritishda marketing tadqiqotlarining roli	368
Yulduz Khayitova. Developing tendencies of religious tourism in the world.....	369
Alimova Shaxnoza Oktyamovna, Moxichehra SHodiyeva Shokir qizi. O'zbekistonda avtomobilarni ijara berish xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari	370
Turobov Sherzod Alisherovich. Kambag'allikni qisqartirishda uy xo'jaliklari tadbirkorligining o'rni ...	372
Шомиев Ғолиб Ўқтамович. Тенденции развития рынка медицинских услуг в узбекистане: аналитический обзор	374
Назаров Назиржон Нарзиллоевич. Худудларни барқарор ривожлантиришда инсон капиталининг роли	376
Хасanova Нафиса Шавкатовна. Инсон ресурсларини бошқариш - ривожланиш гарови	377
Shamurotov Sabirjon Bazarbayevich, Mintaqada suv resurslaridan samarali foydalanishga ta'sir qiluvchi omillarni tasniflash	378
Ўрокова Дилфузা Баҳриддиновна. Мамлакат иқтисодиётида туризм индустрияси улушкини кўпайтириш муаммолари	380
Агзамов С. И., Курпаяниди К. И. Современные проблемы телекоммуникационного сектора Республики Узбекистан	382
Aynaqulov Husniddin Abduxamidovich. Klaster doirasida ishlab chiqarish kooperatsiyasini tashkil etish va yuritishning iqtisodiy konstitutsiyasi	384
Saidova Firuza Kamolovna, O'zbekiston moliya bozorida evrobondlarning amaliy zaruriyati va iqtisodiyotga ta'siri	385
Shodiyev Bekzod. Qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari	388
S.M.Raximova. O'zbekistonda tibbiy xizmatlar bozorini rivojlanishining asosiy tendensiyalar	390
Ruziyeva Gulinoz Fatilloyevna. O'zbekistonda hunarmandchilik klasteri milliy hunarmandchilikni rivojlantirish modeli sifatida	392
Олланазаров Б.Д., Файзуллаев Н.Б., Абдуллаев Х. Мintaqa iqtisodiyeti raqobatbardoshligini oshiishiда туристик кластерларни шакллантириш ва ривожлантиришнинг ўзига хос жиҳатлари	395
Исомов Бекмурат Сайфиддинович. Роль инвестиционной политики в решении экономических проблем	397
Radjabov Odil Olimovich. Promotional measurements of Uzbekistan in abroad for sustainable tourism development	399
Н.Б. Файзуллаев, Х. Абдуллаев, У.Б.Исламов. Худудларнинг инвестицион салоҳиятидан самарали фойдаланиш ва инвестицион жозибадорлигини оширишнинг ўзига хос жиҳатлари	401
Rahmanova Dildora. Iqtisodiyotda korrupsiya muammosi va ijtimoiy oqibatlari masalalari	403
Sag'dullayev Hamidulla, Buyuk ipak yo'li xalqlari madaniyatiga zamonaviy innovatsiyalar joriy etish yo'llari	404
Mardonova Dilrabo Shirinboyevna. Mehmonxona biznesida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari tahlili	405
Sharipova Khadicha Rustamovna, Fayzulloev Bakhriddin Sayfulloevich, Kurbonov Azamjon Jalilovich. Applications of the benchmarking concept to improve the quality of hotel services	409
Azamat Sulaymonov. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar oldida turgan strukturaviy muammolar	412
Д.Д.Алимова. Воздействие потенциального ресурса на сферу услуг	414
Zokirova Manzura Ilhomovna. Turizmda kadrlar qo'nimsizligining asosiy sabablari	416
Allonazarov Ollonazar Norbek o'g'li. Mintaqada mehmonxona xizmatlarini rivojlanish omillari tahlili	417